

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

У.Р.Шадиев

Стратегическое планирование устойчивого развития туризма: международный опыт и рекомендации для Узбекистана	6
---	---

FALSAFA

G.G'.G'affarova

Raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	15
---	----

Q.A.Pulatov

Jamiyatning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish kontekstida sekulyar fikrlashning asosiy xususiyatlari va tarixiy shart-sharoitlari	20
---	----

J.A.Kayumov

Ijtimoiy xavfli harakatlarga moyil talabalar bilan individual ishlashda xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari	25
--	----

K.P.Islamova

Sadriddin ayniy asarlarida jadidchilik faoliyatini jamiyat hayotiga kirib kelish shart-sharoitining yoritilishi	28
---	----

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad ta'limotida jon tushunchasining falsafiy tahlili	33
---	----

O.T.Sharipova

Barkamol avlod tarbiyasida komil inson g'oyasining Xojagon ta'limoti asosidagi zamonaviy talqini	37
--	----

I.A.Suvanov

Axborot tahdidlarning namoyon bo'lishi va unga qarshi kurash zarurati	42
---	----

N.I.Hamroyev

Muhammad Abdo qarashlarida ayollar masalasi	47
---	----

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-falsafiy mazmuni	54
---	----

B.M.Madaminov

Axloqiy tarbiyada milliy qahramonlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili	59
--	----

F.S.Qosimov

Inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy zarurati va ahamiyati	62
--	----

J.M.Kholmuminov, D.R.Komilov

Yusuf Khas Hajib's worldview: philosophical analysis	70
--	----

X.J.Toshpo'latov

Jamiyatda viktimologik profilaktikani amalga oshirishning istiqboldagi strategik yo'nalishlari	74
--	----

M.M.Daliyeva

O'zbek xalqining adabiy merosida ekologik mas'uliyat va fidoyilik fazilatlarining analitik tahlili	78
--	----

S.X.Tolibova

Oiladagi obyektiv omillarning shaxs ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga o'rni	81
---	----

U.M.Maniyozov

Innovatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, ilmiy talqinlari va ijtimoiy mohiyati	85
--	----

O.M.Karimov

Ijtimoiy-falsafiy omil sifatida mehnat erkinligi va uning insoniy taraqqiyotdagi o'rni	90
--	----

O'.M.Xamrakulov

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari	93
---	----

S.X.Mukarramov

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari	99
---	----

D.S.Ermatov

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy mentalitet shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning falsafiy tahlili	103
---	-----

F.M.Abdillazov

Kambag'allik fenomenining jamiyat hayotida namoyon bo'lish shakllari va uni qisqartirish	
--	--



UO'K: 101.1

**YANGI O'ZBEKISTONDA RAHBAR KADRLAR TAYYORLASHDA BOSHQARUV
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL VA AKSIOLOGIK ASOSLARI****КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ И АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ
УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПРИ ПОДГОТОВКЕ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ В НОВОМ
УЗБЕКИСТАНЕ****CONCEPTUAL AND AXIOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING MANAGEMENT
CULTURE IN TRAINING LEADERSHIP PERSONNEL IN NEW UZBEKISTAN****Mukarramov Sardorbek Xolmirzayevich**

mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari va texnologiyalarini takomillashtirishning samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik asoslari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье исследуются теоретико-методологические основы развития управленческой культуры при подготовке управленческих кадров в условиях Нового Узбекистана, эффективность совершенствования механизмов и технологий развития управленческой культуры при подготовке управленческих кадров в условиях Нового Узбекистана. Также анализируются концептуальные и аксиологические основы развития управленческой культуры при подготовке управленческих кадров в условиях Нового Узбекистана.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of developing a management culture in the training of managerial personnel in New Uzbekistan, the effectiveness of improving the mechanisms and technologies for developing a management culture in the training of managerial personnel in New Uzbekistan. The conceptual and axiological foundations of developing a management culture in the training of managerial personnel in New Uzbekistan are also analyzed.

Kalit so'zlar: rahbar kadrlar tayyorlash, modernizatsiya, innovatsiya, ijtimoiy, individual, mexanizm, texnologiya, siyosiy, milliy, boshqaruv madaniyati, konseptual va aksiologik asos.

Ключевые слова: подготовка лидеров, модернизация, инновации, социальный, индивидуальный, механизм, технология, политический, национальный, культура управления, концептуальная и аксиологическая основа.

Key words: leadership training, modernization, innovation, social, individual, mechanism, technology, political, national, management culture, conceptual and axiological basis.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri — xalq bilan samarali muloqotni ta'minlash, fuqarolarning ehtiyoj va muammolarini bevosita eshitish hamda ularni tizimli tarzda hal etishdir. Bu jarayon davlat siyosatining strategik maqsadlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, uning amalga oshirilishi jamiyatda ishonch va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev o'zining barcha chiqishlarida xalq roziligi davlat xizmatchilarining faoliyatidagi asosiy mezon bo'lishi zarurligini qat'iy ta'kidlab keladi. Davlat rahbarining fikricha, har bir rahbar va mansabdor shaxs "yuqori kasb mahorati, zamonaviy tafakkur, puxta o'ylangan va har tomonlama asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi, belgilangan maqsadlarga izchil erishishi" shart. Shu boisdan ham davlat boshqaruvi tizimida zamonaviy talab va ehtiyojlarga mos yangi avlod rahbarlar korpusini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida ilgari surilmoqda.

Bu jarayonni samarali amalga oshirishda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash eng muhim obyektiv zaruriyatlardan biri hisoblanadi. Qonun ustuvorligi nafaqat

huquqiy davlat qurishning poydevori, balki boshqaruv samaradorligini oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashning ham eng asosiy omilidir. Shu nuqtai nazardan, ushbu sohadagi ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish, mavjud tizimdagi muammolarni aniq diagnostika qilish, ularning konstruktiv va tizimli yechimlarini ishlab chiqish bugungi kun davlat boshqaruvi siyosatining dolzarb yo'nalishiga aylangan. Bunda boshqaruvning ilmiy asoslangan metodologiyasidan, innovatsion texnologiyalar va raqamli platformalardan samarali foydalanish, shuningdek, davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirishga qaratilgan mexanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari va takomillashtirish masalalari, Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning konseptual va aksiologik masalalari A.Zinovyev, P.Kennedi, A.Toynbi, E.Toffler, S.M.Mikailov, A.I.Staxov, A.I.Parubov, S.I.Girko, V.A.Maltsev, A.N.Bosxamdjiyeva, L.L.Popov, Z.Ayupova, N.Muhammadiyev, B.To'rayev, E.Ikromov, Ya.Xayrutdinov, S.Choriyev kabi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Insoniyat taraqqiyoti nuqtai nazaridan davlat boshqaruvi ko'rsatkichlari tarkibiga fuqarolarning saylovlarda erkin ishtirok etish imkoniyati, so'z va matbuot erkinligi, siyosiy barqarorlik darajasi, qonun ustuvorligi, hukumat faoliyatining samaradorligi kabi muhim indikatorlar kiradi. Mazkur ko'rsatkichlar nafaqat xalqaro standartlarda, balki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ham mustahkamlab qo'yilgan. Davlat boshqaruvi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri sifatida mamlakat siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining poydevorini tashkil etadi. Shu bois uning samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunda dolzarb obyektiv zaruriyatga aylangan. Hukumat tomonidan davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan vazifalar, avvalo, jamiyatning sifatli, tezkor va shaffof davlat xizmatlariga bo'lgan zamonaviy talablari bilan bevosita bog'liqdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish jarayonida rahbar kadrlar faoliyatining konseptual asoslari sifatida "kasbiy mahorat va madaniyatni oshirish, har qanday holatda ham qonun, adolat va insonparvarlik tamoyillariga asoslanib ish yuritish" talablari belgilandi. Bu yondashuv, bir tomondan, davlat boshqaruvi tizimida malakali kadrlar salohiyatini oshirishga, ikkinchi tomondan, aholining davlat institutlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va qabul qilingan Harakatlar strategiyasi davlat boshqaruvida tanqidiy tahlil, xalq bilan ochiq muloqot va fuqarolarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga keng yo'l ochdi. Bu jarayon Milliy parlament, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud kabi oliy boshqaruv institutlari faoliyatini demokratik taraqqiyotning yangi bosqichi nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.

Biroq, o'tgan o'n yilliklar tajribasi shuni ko'rsatdiki, mazkur institutlar faoliyatida ma'lum darajada turg'unlik, rasmiyatchilik, xalqdan uzoqlashish, korrupsiya va manfaatparastlik kabi salbiy holatlar kuzatilgan. Qabul qilingan qonun va qarorlarning amalda ishlamasligi natijasida fuqarolarning boshqaruv idoralarga bo'lgan ishonchi sezilarli darajada pasaydi. Shu sababli, davlat institutlarining isloh qilinishi va ularning xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi real mexanizmlarga aylantirilishi zaruriy talab sifatida shakllandi. Davlat va uning institutlari jamiyatni birlashtiruvchi siyosiy kuch, "ijtimoiy yadro" sifatida aholining ijodiy, siyosiy va fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, zarur bo'lgan milliy qadriyatlarni, ijtimoiy normalarni va axloqiy mezonlarni shakllantiradi. Shu bois ijtimoiy hayotdagi yutuqlar ham, kamchiliklar ham, avvalo, davlat institutlari faoliyati bilan bog'liq tarzda baholanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlar "davlat xalq uchun xizmat qiladi" degan fundamental g'oyaga asoslanmoqda. Davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Afsuski, biz rahbar bo'ldikmi, darrov yurish-turishimiz o'zgaradi. Odamlarning dardini go'yoki bilmaymiz yoki bilishni xohlamaymiz. O'ylaymanki, bu masalaning juda muhimligini inobatga olib, uni davlat siyosatining ustuvor vazifalari darajasiga ko'tarish vaqti keldi. Shunda bizning dunyoqarashimiz ham, hayotimiz ham o'zgaradi." Demak, xalq dardi bilan yashash davlat institutlari va umuman, boshqaruv vazifalarini o'z zimmasiga olgan barcha tizimlarning muqaddas burchi bo'lishi lozim. Bu xalqimizning azaliy orzusi bo'lib kelgan. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatlaridan foydalanish sohasi juda keng qamrovli bo'lib, sog'liqni saqlash,

FALSAFA

favqulodda xizmatlar, ta'lim, pochta aloqasi, transport, suv ta'minoti, xavfsizlik va energetika kabi tarmoqlarni qamrab oladi. Bu xizmatlarning samaradorligi nafaqat ularning mavjudligiga, balki aholining real ehtiyojlariga javob berish darajasiga ham bog'liqdir. Shuningdek, davlat kundalik hayotda zarur bo'lgan qo'shimcha xizmatlarni ham taqdim etadi, masalan, haydovchilik guvohnomasini yangilash, pasport olish yoki boshqa rasmiy hujjatlarni rasmiylashtirish. Bularning barchasi davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslar zimmasiga yuqori mas'uliyat yuklaydi.

Davlat xizmatlarining aksariyati mehnat bozori orqali yetarli darajada ta'minlanmaydi yoki faqat davlat tomonidan ko'rsatiladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari, xizmat muddati va ko'lami ushbu xizmatlarning jamiyatdagi mavqeini belgilab beradi. Ko'plab hollarda bu xizmatlar mahalliy yoki milliy monopoliyalar, ayniqsa tabiiy monopoliyalar (energetika, suv ta'minoti, transport infratuzilmasi kabi) tomonidan taqdim etiladi. Ushbu xizmatlarning barqaror faoliyatini ta'minlash uchun davlat tegishli infratuzilmani qurish, uni saqlash va modernizatsiya qilish bo'yicha asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Masalan, mahalliy davlat idoralari orqali hududiy daromadlar shakllantiriladi va shu orqali aholiga yaqin bo'lgan "xizmat ko'rsatish nuqtalari" faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bu nuqtalar hukumat va fuqarolar o'rtasidagi eng bevosita aloqa vositasi bo'lib, ularning samaradorligi, ochiqqligi va tezkorligi davlat xizmatlari haqidagi umumiy jamoatchilik fikrini shakllantiradi.

Rahbar kadrlar ushbu jarayonda muhim vositachi sifatida xizmat qiladi. Ular davlat xizmatlarini fuqarolarga yetkazish, ularni amalga oshirish, nazorat qilish va takomillashtirish vazifalarini bajaradilar. Hukumat darajasida taqdim etiladigan sifatli davlat xizmatlari nafaqat inson farovonligini oshirish, balki iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashning ham asosiy omilidir. Shuning uchun ularni uzluksiz va muammosiz yetkazib berish hukumatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Davlat xizmatlari aholining diqqat markazida bo'lishi va ularning real ehtiyojlariga mos kelishi zarur. Oshkorlik va shaffoflikni ta'minlash, fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, yetarliligi va samaradorligini baholash imkonini berish, aholining afzalliklari va talablarini hisobga olish davlat boshqaruvida innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, davlat mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, davlat xizmatlarining katta qismi davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Ammo ba'zan ajratilgan mablag'lar natijalar bilan mutanosib bo'lmaydi. Eng xavfli, korrupsiya holatlari yuzaga kelganda xizmat sifati keskin pasayadi. Masalan, ta'lim tizimida o'quv adabiyotlari yoki sog'liqni saqlash tizimida tibbiy buyumlar mansabdorlar yoki xususiy pudratchilar tomonidan noqonuniy ravishda o'zlashtirilishi mumkin. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shunchaki resurs, jihoz yoki xodimlar sonini ko'paytirish ta'lim yoki sog'liqni saqlash sifatini kafolatlamaydi - buning uchun samarali boshqaruv, javobgarlik va monitoring tizimlari zarur.

XULOSA

Xizmat ko'rsatish sifati hukumat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biridir. Biroq davlat xizmatlarining ko'pchiligi tarixan o'sha davrning ehtiyojlariga javoban yaratilgan bo'lib, bugungi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga mos kelmasligi mumkin. Ayni paytda, ko'plab hukumatlar qarib borayotgan aholining ehtiyojlari, surunkali kasalliklar, megapolislarning ortib borayotgan yuklamasi, qashshoqlik va ijtimoiy tengsizlik kabi yangi muammolar bilan yuzlashmoqda. Bu esa an'anaviy boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini pasaytiradi.

Shunday ekan, davlat resurslari oqimining shaffof va samarali boshqarilishini ta'minlash bilan birga, yangi chaqiriqlarga mos ravishda innovatsion yechimlarni ishlab chiqish zarur. Bu yo'lga raqamli davlat xizmatlari (e-government), foydalanuvchi markazli yondashuv, xizmat ko'rsatish standartlarini modernizatsiya qilish kabi konsepsiyalarni keng joriy etish muhimdir. Shu asosda, davlat xizmatlari nafaqat mavjud ehtiyojlarni, balki kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni ham oldindan hisobga olgan holda rivojlantirilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.1. Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. 49 б.
2. Sampson Scott E. (2001). The Unified Services Theory Approach to Service Operations Management, POM 2001 Meeting – Orlando, Florida Service Operations Management Track.
3. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. док.пси. наук. - М.: 2000, -С. 13.
4. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: "Знание". -1996 – 308 с.

5. Позднышев А.Н. Институт государственной службы в сфере обеспечения общественной безопасности (теоретико-методологические проблемы): дис. ... докт. юрид. наук. – М., 2003. – 402 с.